

**ERKIN FIKR YURITISH VA KRITIKAL FIKRLASHNI
RIVOJLANTIRISHDAGI O'QITUVCHILARNING RO'LI****Mahkamova Sevara ¹**

¹ Qoqon Universiteti xorijiy til va adabiyot fakulteti
1-bosqich talabasi

**MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:**

Received:13.02.2025

Revised: 14.02.2025

Accepted:15.02.2025

KALIT SO'ZLAR:

tahlil qilish,
metodlardan foydalanish
, munozaralar o'tkazish,
guruh bo'lib ishlash.

Ushbu taqdimot o'qituvchilarning talabalar va o'quvchilar orasida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi ro'li va bu jarayonda foydalaniladigan metodologiyalarni va ularning talabalarga qanday holatda tasir qilishi va qanday samara berishi o'rganadi. Tadqiqotda so'rovlar, intervyular va o'qituvchilar bilan olib borilgan suhbatlar asosida, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda guruhlarda va yakka tartibda ishlash, ular bilan turli xildagi munozaralar otqazish, diskussiyalar o'tkazish va muommolarni tahlil qilish va unga qanday yechim topishlarini tahlil qilishning samaradorligi tahlil qilinadi. Natijalar shun iko'rsatadiki, o'qituvchilarning interaktiv metodlarni va turli xildagi pedtexnologiyalarni qollashlari talaba va o'quvchilarda tahliliy va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini yuzaga chiqarish va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

KIRISH. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda o'qituvchining ro'li degan mavzuga to'xtaladigan bo'sak, bu mavzu hozirda juda ham dolzarb mavzu hisoblanib kelmoqda. O'qituvchilar asosan bolalarni fikrlashini oshirishda o'qituvchi va pedagoglarning ro'li juda ham katta hisoblanadigan bir paytda yashayapmiz, chunki hozir talabalarni qoya turaylik hatto boshlangich sinf o'quvchilari ham fikrlashlari lozim. Sababiga toxtaladigan bo'sak hozir ishlab chiqariladigan darsliklr ko'rinishidan soda va osonga o'xshab ko'rinsa ham o'quvchini fikrlashga majburlaydi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda hozirgi kunda

o'qituvchilar turli xildagi metodlar va turli xildagi o'yinlar bilan talaba va o'quvchilarning fikrlashini oshirishda komaklashib kelmoqda . Albatta bu metodlar bolaga o'z – o'zidan qollanmaydi turli xildagi sinovlardan o'tkazib bolalar va talabalarga qanday ta'sir ko'rsatilishi tahlil qilinadi so'ngra o'quvchilar bilan amalga oshiriladi

ADABIYOTLARNI TAHLILI VA METODLAR TAHLILI

Adabiyotlar tahliliga to'xtalib o'tadigan bo'lsak , tadqiqot Xo'jayevaning pedagogik yondashuvlarini va metodik ko'rsatmalarini asos qilib olib , tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda avvalo o'qituvchilar bilan olib boriladigan suhbatlar katta ro'l o'ynaydi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda interaktiv usullar guruhli va yakka tartibdagi muhokamalar va munozaralar va yana turli xildagi muommoli vaziyatlar va ularning vaziyatdan qanday yechim topishi va ushbu usullardan foydalanib samaradorligini korib chiqilishi lozim. Ular bilan turli xildagi ko'ngil ochar o'yinlar o'ynash va ularga o'z fikrlarini bayon qilishni o'rgatish nutqini rivojlantirishga yordam berish ham o'qituvchilarning zimmasiga yuklatilgan. Masalan turli xildagi savollar berish va ushbu savollardagi javoblarga e'tibor berish lozim deb fikr yuritadi. Albatta o'qituvchilarni ham to'g'ri tanlash lozim , chunki boshqa har qanday sifat kabi kritikal fikrlash ham birdaniga yuzaga chiqib qoladigan narsa hisoblanmaydi. Uni muayyan bisqichlarda izchil shakllantirib uni rivojlantirilib boriladi. Pedagogning fikrlash sifatlariga ega bo'lishi uning shaxsiy qobiliyatlarini qay darajada ekanligini anglatib beradi.

MUHOKAMA NATIJALARI

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki: albatta erkin fikrlash va kritikal fikrlashni oshirishda o'qituvchining ro'li katta va muhim deb hisoblanadi va ularning metodik yondashuvlari talabalar va o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini mustahkamlashda samaraki va foydali bolishi lozim. Metodlarni qo'llash bilan cheklanib ham qolishmaydi. Ular talabalar bilan doimiy muloqotda bo'lib, fikrlarini qanday bayon qilishlariga e'tibor berishi ya'ni yuqorida aytganimdek ularning nutqi deb ta'kidlab o'tilgan. Nutqi deganda shuni tushunish lozimki, ular o'z fikrlarini o'zlariga ishonib aytishlari va o'zlarining fikrlaridan mamnun ekanliklari kuzatilinishi lozim deb bilamaman. Xojayevaning fikriga ko'ra o'quvchilarning erkin fikr yuritishiga imkon berish, muhokama qilish va savollar orqali talabalarni tahliliy fikrlashga rag'batlantirish o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. O'qituvchikar shuningdek, o'zlarining pedagogic metodlarini doimiy ravishda qayta ko'rib chiqib, talabalar ehtiyojiga moslashtirishlari kerak

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'qituvchilar o'quvchilarni kritik fikrlashga o'rgatish orqali har bir narsa va voqelikka o'z munosabatini bildirib olish, mustaqil o'z fikrini ishonch bilan bayon qilish ya'ni ifoda etib olish, tanqidiy yondashuv asosida yechim topishga yo'naltirilishni yuzaga keltira olamiz. Albatta bunda eng katta ro'lni o'qituvchi va pedagoglar o'z zimmasiga olishadi va bu juda ham ma'suliyatli ishlardan biri hisoblanadi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining Xalq ta'limi tizimida uzluksiz metodik xizmat korsatish ishlarini yanda takomillashtirish to'g'risidagi" 2022 yil 5- dekabr 372- son buyrug'i
2. Xo'jayeva , M (2019) Ta'limda tanqidiy fikrlash ni rivojlantirish: metodik tavsiyalar . Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.

